



## JAHON MOLIYAVIY BOZORIDA TAKOFULNING MAMLAKATLAR IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

**Dadabayev Umidjon Abdusamat o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

email: [u.dadabayev@tsue.uz](mailto:u.dadabayev@tsue.uz)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 8

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss8/a19](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a19)

### ABSTRACT

Mazkur maqolada takofulning mamlakatimizda joriy etilishiga doir iqtisodiy matematik hisob-kitoblar taqdim etiladi. Ma'lumki, professional faoliyat olib boruvchi takoful korxonalar, bunday amaliyot tajribasi yurtimizda uchramaydi. Juda ham kam sonli mikromoliya tashkilotlari takoful printsiplari asosida ishlashga harakat qilmoqda, ammo bunday korxonalar aholiga professional moliyaviy xizmatni taqdim etmaydi. Bundan tashqari, ularning faoliyat boshlaganiga ko'p vaqt bo'lmadi. Shuning uchun ulardan olingan statistik ma'lumotlar vaziyatga ekonometrik baho berishga yaramaydi. Bunday data asosida ishchonchli natija olib bo'lmagligini olimlar yaxshi biladilar.

### KEYWORDS

Takoful, umumi takoful, oilaviy takoful, mudoroba, global takoful sug'urta bozori.

### Kirish (Introduction/Введение).

Ma'lumki, professional faoliyat olib boruvchi takoful korxonalar, bunday amaliyot tajribasi yurtimizda uchramaydi. Juda ham kam sonli mikromoliya tashkilotlari takoful printsiplari asosida ishlashga harakat qilmoqda, ammo bunday korxonalar aholiga professional moliyaviy xizmatni taqdim etmaydi. Bundan tashqari, ularning faoliyat boshlaganiga ko'p vaqt bo'lmadi. Shuning uchun ulardan olingan statistik ma'lumotlar vaziyatga ekonometrik baho berishga yaramaydi. Bunday data asosida ishchonchli natija olib bo'lmagligini olimlar yaxshi biladilar.

Shu nuqtai nazardan, musliman malakati hisoblangan, aholi soni davlat xududi, shuningdek, aholining mentaliteti jihatidan bizga o'xshaydigan, islam moliya sektorida ilg'or mamlakatlardan hisoblangan – Malayziya davlati tanlab olindi. Islam sug'urta munosabatlarni tartibli yo'lga solgan ushbu mamlakatning markaziy banki, shuningdek, yetakchi moliya tashkilotlari juda ishchonchli va tartibli ravishda yillik hosobot va tizimli tahlillarni taqdim etib kelmoqda.

### Mavzuga doir adabiyyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор).

Takaful sug'urtaning islomiy shakli bo'lib, jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishda katta salohiyatga ega. Malayziya, Kosovo va Indoneziya kabi turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar takaful sanoatining iqtisodiy o'sishga ijobji ta'sirini ta'kidlaydi [1,2,3]. Takafulning yangi bozorlarga, jumladan, g'arbiy hududlarga tez kengayishi uning xalqaro moliya bozoridagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi [4]. Ildizlari islam paydo bo'lgan zamonalariga borib taqaladigan takaful shariat tamoyillariga amal qilgan va shariat kengashlari tomonidan nazorat qilinadigan zamonaviy moliyaviy tizimming muhim tarkibiy qismiga aylandi [5]. Innovatsion takaful mahsulotlarini ishlab chiqish va shariat qonunlariga rioya qilish takafulni iqtisodiy faoliyat va sarmoyaviy muhitni yaxshilashda, pirovardida dunyoning turli mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda asosiy o'yinchisi sifatida joylashtirdi.

Dunyoda islam moliyasini keng tadqiq qilgan olimlardan, amerikalik iqtisodchi, akademik kordinator doktor S.Sai'd o'zining "Islam bank ishi va moliyasi: asoslari va zamonaviy muammolari" (Islamic Banking and Finance: Fundamentals and Contemporary Issues) nomli kitobida islam sug'urta korxonalarini faoliyatini keng yoritib beradi [2]. Shuningdek u

takafulga quyigicha ta'rif beradi: "Takoful zamonaviy sug'urta shartnomasi uchun muqobildir. Bir guruh shaxslar, ma'lum bir xavfni har biridan belgilangan summani yig'ish orqali bo'lishishga rozi bo'lishadi (masalan, yong'in natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan zarar va hokazo). Guruh a'zolaridan birortasi mazkur xavf ostida qolgan taqdirda, zarar yig'ilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi."

Islam mamlakatlarida yashab ijod qiluvchi olimlardan Doktor Yahyo Abdur-Rahmon, islam moliyasi va takoful bo'yicha keng tanilgan olimlardan bo'lib, moliyaviy munosabatlarda shariatga rioya qilish va moliyaviy shartnomalar bo'yicha tadqiqotlari bilan tanilgan [3]. Shuningdek Zohin Ansoriy 2000 va 2019 yillarda oralig'ida nashr etilgan so'nggi yigirma yillik takaful adabiyyotlarini sintez qiladi va uslubiy jihatdan adabiyyotlarni ko'rib chiqadi, kelajakdag'i tadqiqotlar uchun ba'zi muhim yo'naliishlarni taklif qiladi [4]. Ushbu tadqiqot uchun Scopus ma'lumotlar bazasiga murojaat qilinganda 96 ta maqola topildi. Maqolalar asosiy mavzular bo'yicha tasniflanganda ist'molchilarining xatti-harakatlari, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar, takaful modellari, inson resurslari va boshqaruv yo'naliishlari bo'yicha ilmiy ishlamalar yuzaga chiqadi.

Shariat sug'urtning nafaqat aholisi ko'pchilik muslimmonlar bo'lgan mamlakatlarda talabga ega balki Evropaning bir qancha mamlakatlarda katta talabga ega bo'la boshladi. Bu hodisa takaful sanoatining rivojlanishi va kelajakdag'i yo'naliishi haqida global tasavvuriga ega bo'lish uchun takaful bibliometrik tadqiqotlarning muhimligini ko'rsatadi.

2020 yilning 29 dekabr kuni davlatimiz rahbari o'zining Oliy Majlisiga qilgan murojaatida, "O'zbekistonda islam moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqtsoati keldi. Bunga Islam taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", – deya e'tirof etdi [6].

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).** Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalaniadi.

### Tahlillar (Analysis/Анализ).

Malayziya Takaful asotsiatsiyasining (Malaysian Takaful Assosiation) takaful sanoatidagi yillik hisobtlaridan olingan statistik ma'lumotlar, shuningdek, Jahon bankingning rasmiy veb sayti taqdim etgan

Malayziyaning makroiqtisodiy va moliyaviy ko'sratichiklari asosida quyidagi tahillarni amalga oshirdik. Maqsadimiz iqtisodiy-moliyaviy ko'sratichiklari hisoblangan Yalpi jamg'armalar nisbati (Gross National Ratio), sug'urta davo'larining qondirilganlik darajasi (foizda), oilaviy hamda umumiy takofularining qillyk o'sish suratlari o'ttasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash bo'lib, erksiz o'zgaruvchi sifatida Malayziyada Yalpi jamg'arish nisbatini tanlab oldik. Keyingi erkli o'zgaruvchilar natijaviy omilga qanday ta'sir qilishi ekonometrik modellashtirish orqali tadqiq etildi.

Natijaviy omil Jahon bankingin rasmiy veb saytida keltirilgan statistik ma'lumotlardan foydalanib quyidagi formula asosida shakllantirildi:

$$GSR = \frac{GNS}{GNI} * 100\%$$

bu yerda,

*GSR* – Gross Savings Rate, Yalpi jamg'arish nisbati;

*GNS* – Gross National Savings, Yalmi milliy jamgarma;

*GNI* – Gross National Income, Yalpi milliy daromad.

Maqsadga erishish uchun, ma'lumotlar harakteristikasidan kelib chiqqan xolda, bu vqtning o'zida ikki xil modelda ishlashga to'g'ri keldi. Tanlangan birinchi model kichik kvadratlar (LS, Least Squares) bo'ldi. Chiziqli eng kichik kvadratlar modeli chiziqli regressiya modelining parametrlarini baholash uchun ishlatalidigan usul bolib, chiziqli regressiya kuzatilgan ma'lumotlarga chiziqli tenglamani o'rnatish orqali erksiz o'zgaruvchi va bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni modellashtirishga qaratilgan [7].

Mazkur modelni quyidagi umumiyy formula orqali ifodalash mumkin:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_k X_k + \varepsilon$$

bu yerda,

*Y* - erksiz o'zgaruvchi;

*X*1, *X*2, *X*k – erkli o'zgaruvchilar;

$\beta$  - modelni baholash uchun kerak bo'lgan parametrlarni o'z ichiga olgan vektor.

$\varepsilon$  - xatoliklar darajasi

Tanlangan keyingi model Chiziqli bo'lmagan eng kichik kvadratlar (NLS, Nonlinear Least Squares) – chiziqli bo'lmagan regressiya modelining parametrlarini baholash uchun ishlatalidigan usul bo'lib, bu erksiz o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar chiziqli bo'lmaganda qo'llaniladi. Bu modeldan asosiy ko'zlangan maqsad – kuzatilgan va bashorat qilingan qiymatlar o'rtasidagi kvadratik farqlar yig'indisini minimallashtirish [7].

Statistik tahlilda asosiy tuzilmaning turli tomonlarini qamrab olish uchun bir nechta modellashtirish usullarini talab qilishi mumkin bo'lgan murakkab ma'lumotlarga duch keliш odatiy holdir. Chiziqli bo'lmagan eng kichik kvadratlar (NLS) va avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtaча (ARMA, AutoRegressive Moving Average) modellarini turli maqsadlarga xizmat qilsa-da, ular birlgilikda ishlatalishi mumkin bo'lgan ssenariyalar mayjud.

Chiziqli bo'lmagan eng kichik kvadratlar modeli orqali erkli va erksiz o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bo'lmagan munosabatni modellashtirish uchun foydalananish mumkin. Bir vaqtning o'zida mazkur modelning qoldiqlari o'rtasidagi vaqtinchalik bog'liqlikni aniqlash mumkin. Bunday hollarda qoldiqlardagi qonuniyatlarini aniqlash uchun ARMA modelini qo'llash mumkin bo'ladi.

Lekin, NLS va ARMA modellaridan birlgilikda foydalananish, ma'lumotlarning xususiyatlari va tahlilning maqsadiga bog'liq [8]. Har bir modelning natijalarini baholash va kombinatsiya ma'lumotlar to'plamining asosiy tuzilishiga mos kelishini ko'rib chiqish juda muhimdir. Bundan tashqari, kompozit modellashtirishning natijalarini sharhash va tasdiqlash uni diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi.

Shunday qilib mazkur kompozit modellashtirda qo'llanilgan ikki model NLS va ARMA larning harakteristikasiga to'xtalib o'tamiz. Chiziqli bo'lmagan eng kichik kvadratlar – NLS, yuqorida ta'kidlanganidek, chiziqli bo'lmagan regressiya modelining parametrlarini baholash uchun ishlatalidigan usul bo'lib, quyidagi umumiyy ekonometrik formula yordamida tushuntiriladi:

$$Y = f(X_1, X_2, X_3, \beta) + \varepsilon;$$

bu yerda,

*Y* - erksiz o'zgaruvchi;

*X*1, *X*2, *X*3 – erkli o'zgaruvchilar;

$\beta$  - modelni baholash uchun kerak bo'lgan parametrlarni o'z ichiga olgan vektor.

$\varepsilon$  - xatoliklar darajasi.

Yuqorida funksiya murakkab funksiya bo'lib, uning xususiy hamda kengaytirilgan tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$f(X_1, X_2, X_3, \beta) = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_1^2 + \beta_5 X_2^2 + \beta_6 X_3^2$$

bu yerda,  $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4, \beta_5, \beta_6$  lar vektor elementlari.

ARMA modeli esa vaqtli qatorlarni tahlil qilish uchun ishlataladi. Ular avtoregressiv (AR, autoregressive) va harakatlanuvchi o'rtaча (MA, moving average) komponentlарini vaqt seriyasida vaqtinchalik bog'liqliklarni modellashtirish uchun birlashtiradi [9]. ARMA modellar, ayniqsa, o'tmishdagi kuzatishlar asosida kelajakdagи qiymatlarni bashorat qilish uchun ham foydalananiladi.

Mazkur modelning ( $p, q$  uchun) umumiyy matematik ko'rinishi quyidagicha ifodalananadi:

$$Y_t = c + \phi_1 Y_{t-1} + \phi_2 Y_{t-2} + \dots + \phi_p Y_{t-p} + \varepsilon_t + \theta_1 \varepsilon_{t-1} + \theta_2 \varepsilon_{t-2} + \dots + \theta_q \varepsilon_{t-q}$$

bu yerda,

$Y_t$  – natijaviy omilning  $t$  vaqt oralig'i da aniqlangan qiymatlari;

$c$  – konstanta;

$\phi_1, \phi_2, \dots, \phi_p$  – avvalgi qiymatlarning joriy qiymatga ta'sirini ifodalovchi avtoregressiv koeffitsientlar;

$\varepsilon_t$  – vaqtli qatorda xatolikning og shovqin koeffitsenti;

$\theta_1, \theta_2, \dots, \theta_q$  – o'tgan xatoliklarning joriy qiymatlarga ta'sirini ifodalovchi harakatlanuvchi o'rtaча koeffitsientlar.

Tanlab olinagan modellarдан tuzilgan tenglamalar turli diagnostika testlaridan o'tkazilganda Eng kichik kvadratlar (LS) va Strukturaviy tenglamalarning modellashtirish (SEM, Structural Equation Modeling) modellarini afzal bo'lib chiqdi. Chunki NLS va ARMA modellarining aksar parametrлari statistik ahamiyatga ega emasligi testlarda aniq bo'lib qoldi.

Strukturaviy tenglamalarning modellashtirish (SEM) – bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni modellashtirish va tahlil qilish uchun ishlatalidigan statistik usul. SEM kuzatilgan va yashirin (kuzatilmagan) o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun bir nechta tahlillarning elementlarini birlashtiradi. SEM turli sohalarda, jumladan, ijtimoiy fanlar, psixologiya, iqtisod va biologiyada keng qo'llaniladi [10]. Bu modelni ba'zi ekonometrik olimlar Chiziqli strukturaviy bog'liqliklar (LISREL, Linear Structural Relationship) modeli ham deb ataydilar [11].

Bir necha parametrлarga ko'ra tanlab olinagan LS va SEM modellarini orqali erishilgan natijalarini bayon qilishdan oldin, to'plangan statistik ma'lumotlarning statistik ahamiyati, ularning statsionarligi haqida bir qator hisob-kitoblar va grafiklarni taqdим etsak.


Quyidagi jadvalda natijaviy omil hamda erkli o'zgaruvchilar o'rtasidagi kerrelyatsiya koeffitsientlari keltirilgan. Ular orqali tanlangan erksiz va erkli omillar o'zaro qanday bog'langanligini dastlabki tahlil qilish mumkin bo'ladi.

1-jadval  
Yalpi jamg'arish nisbati (Natijaviy omil)ga nisbatan erkli o'zgaruvchilarning korrelyatsiya koeffitsientlari<sup>1</sup>

Tanlangan omillar	Korrelyatsiya koeffitsenti
Sug'urta da'volarining qondirilganlik darajasi	0.220
Oilaviy takoful yillik o'sish suratlari	-0.5313
Umumiyy takoful yillik o'sish suratlari	0.2026

Yuqorida jadvaldan natijaviy omilga nisbatan tanlangan birinchi (Sug'urta da'volarining qondirilganlik darajasi) va uchinchi (Umumiyy takoful yillik o'sish suratlari) o'rtaida sezilarli to'g'ri proporsional bog'liqlik borligi tushuniladi. Ikkinci mustaqil o'zgaruvchi (Oilaviy takoful yillik o'sish suratlari) esa kuchli teskarli proporsional bog'lanishga ega kanligi kelib chiqadi.

To'plangan statistik ma'lumotlar Malayziyaning Takoful asotsiatsiyasi yillik hisobotlari, shuningdek Jahon bankingin rasmiy statistik axborotlaridan olinagan esada, bu raqamli ma'lumotlarning statsionarligi va trendga egaligi, va qator sifatlarga ega bo'lishini quyidagi grafiklar orqali tekshirib ko'ramiz.




1-rasm. Natijaviy omil va erkli o'zgaruvchilarning matritsa chizmasi<sup>2</sup>.

Natijaviy omil va erkli o'zgaruvchilarning matritsa chizmasi orqali erksiz o'zgaruvchi hamda erkli o'zgaruvchilarning o'zaro qanday qonuniyatda bog'lanishlari, shuningdek, erkli o'zgaruvchilar o'rtasida

ham o'zaro qanday bog'liqlik borligi tasvirlanadi. Ma'lumotlar, ya ni vaqtli qatorlar statistik datalari statsionar emasligi, shuningdek variatsiyalar quyidagi kesmalarda Dikey-Fuller testlari natijalari orqali keltiriladi.

Bu tahliliy bosqich, model tuzishdan avvalgi muhim bosqich hisoblanib, ma'lumotarning hom-ashyosi qanday holatda ekanligini baholashdir. Masalan to'plangan statistik ma'lumotlar qanday ahvolda, ulardan qaysi , ishonchi modellar ishlab chiqish mumkin, shu kabi savollarga, mazkur bosqichda erishilgan tadqiqot natijalari javob beradi. Shuningdek, bu bisqichda, agar tadqiqot vaqtli qatorlarga tegishli bo'lsa, uni avvalambor natijaviy omildan tortib, barcha erkli o'zgaruvchilarini statsionarlikka tekshirish, hamda mazkur vaqtli qatorlarda trendning mayjud yoki yo'qligini aniqlashdan boshlash zarur bo'ladi [12].



2-rasm. Natijaviy omil va har bir erkli o'zgaruvchilarining (a,b,c chizmalar), shuningdek uchala omilning natijaviy omiga nisbatan emperik qiymatlari matritsa chizmasi (d chizma).

Yuqorida chizmalardan erkli va erksiz o'zgaruvchilar emperik qiyatlarining matritsaviy joylashuvi tasvirlanadi. Bu chizmalardan erksiz o'zgaruvchi va erkli o'zgaruvchilar o'zaro musbat yoki manfiy, to'g'ri yoki teskari proporsional ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi. Ikki ko'satkich orasidagi bog'lanishlarni o'rganishda regressiya tenglamalarini grafik usulida tanlash ko'rgazmali chizmalar shaklida amalga oshiriladi. Bu usul korrelyatsiya maydoniga asoslanadi [13]. Shuningdek d chizmada uchala erkli omilning birvarakayiga erksiz omilga nisbatan korrelyatsiya maydonidagi ko'rinishi tasvirlanadi. Bu chizmalar, albatta, tadqiqot uchun tanlnishi kerak bo'lgan modelning egri chizig'i qanday bo'lishi haqida dastlabki xulosalarni beradi.

Shuningdek, o'zgaruvchilarining xususiyatlarni bayon qiluvchi yana bir muhim chizmalardan biri olti chizmali (sixplot) grafik bo'lib, ushu grafik orqali dataga tegishli bo'lgan qoldiqlarning normal taqsimlanganligi, ishonch oralig'i, zichlik, statsionarlik kabi xususiyatlarni birgina grafikda tahlil qilish imkonini beradi [14].

Kointergarsion aloqani tekshirish o'zgaruvchilarining integratsiya darajasini talab qilishi sababli kointegratsiya testlaridan avval har bir o'zgaruvchi uchun integratsiya darajasini aniqlaniladi. Buning uchun Dickey-Fuller (DF) testidan foydalananadi [15]. Mazkur test Dickey va Fuller tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "Birlik ildiz testi" nomi bilan ishlataladi. Umuman ko'satkichlarni statsionarlikka tekshirish uch usulda amalga oshiriladi. Grafik usuli, avtokorrelyatsiyon korrelagramma hamda ADF (Augmented-Dickey-Fuller) testlaridir.

Vaqti qator ma'lumotlari statsionar yoki statsionar emasligini quyidagi jadvallar orqali tahlil qilish mumkin bo'ladi. Dickey-Fuller testi natijasi qolgan uchta (1% lik kritik qiymat, 5% lik kritik qiymat, hamda 10%lik kritik qiymat) qiyatlarining barchasidan kichik bo'lishi, shuningdek, Makkinnon p-qiyatining 0.05 dan kichik bo'lishihi talab etiladi [16].

Yuqorida garafiklardan to'plangan vaqtli qatorning statistik ma'lumotlari tabiiy holatda statsionar emasligini anglash qiyin emas. Shuning uchun quyidagi jadvalda barcha o'zgaruvchilarining birinchitartibli ayirishdan keyin statsionarlikka o'tishini bayon qiluvchi raqamlar keltirilgan. Ma'lumki, ko'p omilli vaqtli qatorning omillari statsionar bo'lmasa unlami statsionarlikka o'tkazish uchun ularni birinchi, ikkinchi va hokazo tartibli ayirib ko'rildi. Ba'zi modellar ma'lumotning statsionar bo'lishi talab etilmaydi. Aksincha yana ba'zi modellar ma'lumotlarning tabiiy holatidayoq statsionar bo'lisi talab etiladi, bu esa, albatta, modelning xususiyatlarga bog'liq. Misol uchun, VEC (Vector Auto Correlation), VAR (Vector Auto Regression) modellari bilan


ishlanayotganda vaqtli qatorning dastlabki holatining o'zida statsionar bo'lishi talab etiladi, aks xolda bo'lsa bu modellar orqali biror natijaga erishib bo'lmaydi.

ARDL (Auto Regressive Distributed Lags) modelini qo'llashda esa, omillarning dastlabki xolatida statsionar bo'lmasa, birinchi tartibli ayirishdan keyin statsionarlik shartlariga javob bersa yetarli bo'ladi. Biz qo'llayotgan Chiziqli Strukturaviy bog'liqliklar (Structural Equation Modeling, SEM) modelining ma'lumotlarga qo'yadigan shartlarida esa vaqtli qatorning tabiiy holatida statsionar bo'lishi kerak degan shart mayjud emas.

2-jadval.  
Erkli va erksiz o'zgaruvchilar birinchi tartibli ayorishdan keyingi statsionarlikka tekshirish natijalari (Dickey-Fuller testi asosida)<sup>3</sup>

Omlilar	p-qiymat	Test natijasi	1% kritik qiymat	5% kritik qiymat	10% kritik qiymat
Natijaviy omil	0.0039	-3.718	-3.580	-2.930	-2.600
Birinchi erkli o'zgaruvchi	0.0006	-4.223	-3.580	-2.930	-2.600
Ikkinchi erkli o'zgaruvchi	0.0052	-3.629	-3.580	-2.930	-2.600
Uchunchi erkli o'zgaruvchi	0.0029	-3.801	-3.580	-2.930	-2.600

Birinchi tartibli ayirishdan keyin natijaviy omil va barcha erkli o'zgaruvchilar statsionar ekanligini Dikey-Fuller testi natijalari orqali aniqlab olindi. Yuqorida jadvalga ko'ra test natijasi p-qiyatlarining barchasi 0.05 dan kichik va olingan test natijalari 1 foizlik kritik qiyatdan kichik va bu holat ijobiy baxolanadi.




3-rasm. Tadqiqot gipotezasini ifodalovchi SEM modelining parametralsiz tasviri<sup>4</sup>.

LISREL modelida o'rganmoqchi bo'lgan narsamiz Yalpi jamg'arish nisbatining sug'urta da'volarining qondirilganlik darajasi, oildavi takoful yillik o'sish surati va umumiy takoful yillik o'sish surati o'ttasidagi bog'liqliknini o'rganishdir. Tadqiqot uchun qo'yiladigan H0 gipoteza – bu natijaviy omil va erkli o'zgaruvchilar o'ttasida o'zaro bog'liqlik mavjud emas. H1 esa H0ning aksi – ya'ni natijaviy omil va mustaqil o'zgaruvchilar o'ttasida chiziqli bo'limgan bog'liqlik bor.

Ma'lumki, statistik gipotezani tekshirishda ikkita gipoteza solishtiriladi. Bular nol gipoteza va muqobil gipoteza deb ataladi. Nol gipoteza - bu aloqasi o'rganilayotgan hodisalar o'ttasida hech qanday bog'liqlik yoki hech bo'limganda muqobil gipoteza tomonidan berilgan shakldagi aloqa yo'qligini bildiruvchi gipoteza. Muqobil gipoteza, nomidan ko'rinib turibdi, nol gipotezaga muqobildir: u qandaydir munosabat mayjudligini bildiradi.

STATA dasturi yordamida erishilgan quyidagi chizma modelning parametrlari haqida tasvirlaydi. Unga ko'ra H0 gipoteza inkor qilinib, H1 gipoteza – natijaviy omil va mustaqil o'zgaruvchilar o'ttasida chiziqli bo'limgan bog'liqlik mavjudligi tan olinadi.



4-rasm. Tadqiqot gipotezasini ifodalovchi SEM modelining parametrli tasviri<sup>5</sup>.

Bu yerda,

Y – yalpi jamg'arish nisbati

X1 – sug'urta da'volarining qondirilganlik darajasi,

Maxsus son 2024

X2 – oilaviy takoful aktivlarining yillik o'sish surati,  
 X3 – umumiyl takoful aktivlarining yillik o'sish surati,

Demak, H1 gipotezaga ko'ra natijaviy omil hisoblangan Yalpi jamg'arish nisbatining sug'urta da'volarining qondirilganlik darajasi, oilaviy va umumiy takofulning yillik o'sish surati o'tasida statistik ahamiyatga ega bo'lgan bog'lilik mavjud.

3-jadval.

Parametrlar va test natijaları<sup>6</sup>.

Kuzatuvlar soni	52
Log likelihood	-684.25362
Modelning LR (long run) testi p-qiymati	0.00
Solishtirma moslik indeksi	1.000
R <sup>2</sup>	0.50699

o'zgaruvchilar	koeffitsentlar	standart xatolik	z	p-qiymat	95 foizlik ishonch oraliq'i
ozod xad	26.82526	2.618131	10.25	0.000***	21.69382 31.95671
X <sub>1</sub>	0.103932	0.0478377	2.17	0.030**	0.0101718 0.1976922
X <sub>2</sub>	-0.2557356	0.0374782	-6.82	0.000***	-0.3291915 -0.1822797
X <sub>3</sub>	0.2926691	0.0848782	3.45	0.001**	0.1263109 0.4590273
o'rucha X <sub>1</sub>	57.18462	1.330665	42.97	0.000***	54.57656 59.79267
o'rucha X <sub>2</sub>	25.03654	1.698934	14.74	0.000***	21.70669 28.36639
o'rucha X <sub>3</sub>	10.21731	0.787844	12.97	0.000***	8.673162 11.76145

SEM modelini interpretatsiya qilishdan oldin yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlarni sharxalb o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Jadvalga ko'ra barcha p qiymatlar 0.05 dan kichik. Modelning solishtirma moslik indeksi 1 ga teng, bu esa modelning real hayotiy ekanligiga dalolat qildi. Yana bir qiyamat R2 ning 51 ga yaqin ekanligi ham SEM modelning sifatidan darak beradi. Tanlangan modelning statistik ahamiyatiga oxirgi testlari p

qiymati, solishtirma moslik indeksi va R2 larning ijobiy natijasi yetarli bo'ladi. Shunday qilib tanlangan SEM modeli barcha testlar talablariga javob berib, bizning nol gipotezamizni inkor qildi.

## Maqola bo'yicha xulosha va takliflar (Conclusions/Заключения).

Xulosha qilib aytadigan bo'lsak, Takaful, ya'ni islom sug'urtasi global sug'urta landshaftining o'ziga xos va tez rivojlanayotgan komponenti hisoblanadi. Shariat tamoyillariga asoslangan Takaful o'zaro hamkorlik va yordam tushunchasini o'zida mujassam etgan bo'lib, jismoniy shaxslar va korxonalar uchun axloqiy va shariatga mos sug'urta yechimlarini taklif etadi. Takoful tavakkalchilik va foydani taqsimlash kabi o'ziga xos xususiyatlari orqali, nafaqat, islom mamlakatlarda, balki butun dunyoda moliyaviy inklyuzivlik va barqarorlikka hissa qo'shadi.

Shunday qilib, modelning interpretatsiyasi quyidagicha ifodalananadi:

1. sug'urta da'volari qondirilganlik darajasining bir foizga ortishi, boshqa omillar ta'sir etmaganda, yalpi jamg'arish nisbatining 10 foizga ortishiga olib keladi.

2. oilaviy takoful aktivlarining yillik o'sish suratining bir foizga ortishi, boshqa omillar ta'sir etmaganda, yalpi jamg'arish nisbatining 26 foizga kamayishiga olib keladi.

3. umumiy takoful aktivlarining yillik o'sish suratining bir foizga ortishi, boshqa omillar ta'sir etmaganda, yalpi jamg'arish nisbatining 29 foizga ortishiga olib keladi.

## References:

1. Salman Syed Ali and Ausaf Ahmad. Islamic Banking and Finance: Fundamentals and Contemporary Issues. King Fahad National Library Cataloging-in-Publication Data. Islamic Research & Training Institute. P.O. Box 9201, Jeddah 21413, First Published 1427H (2007). Saudi Arabia. ISBN 9960-32-162-2. 312 p.
2. Yahia Abdul-Rahman. The Art of RF (Riba-Free) Islamic Banking and Finance Tools and Techniques for Community-Based Banking, 2nd Edition. John Wiley & Sons Ltd. 2014. ISBN 9781118770962. 544 p.
3. Ansari, Z. (2022). A Review of 20 years of Takaful Literature Using a Systematic Method. Asian Journal of Economics and Banking (2022), 2-25.
4. Al-Amri K., Hossain M. Z. (2017). A survey of the islamic insurance literature-Takaful. International Journal of Economic Research, 14(9), 173–185.
5. U.Dadabayev. (2023) Insurance relationships in Islamic finance: development prospects of family takoful UO'K 336 И: 36 (575.1). Islom moliyasida sug'urta munosabatlari: oilaviy takofulning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil elektron jurnali. UO'K 336 И: 36 (575.1). 2023-yil, noyabr www.e-itt.uz
6. Yu Miao, Ke Wang, Fangfang Zhao, Some limit behaviors for the LS estimator in simple linear EV regression models, Statistics & Probability Letters, Volume 81, Issue 1, 2011, Pages 92-102, ISSN 0167-7152, <https://doi.org/10.1016/j.spl.2010.09.023>.
7. Yi-Xiang Chen, Xiao Xiao, Vector bright-dark one-soliton and two-soliton of the coupled NLS model with the partially nonlocal nonlinearity in BEC, Optik, Volume 257, 2022, 168708, ISSN 0030-4026, <https://doi.org/10.1016/j.jleo.2022.168708> (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0030402622001164>)
8. Junyao You, Chengpu Yu, Jian Sun, Jie Chen, generalized maximum entropy-based identification of graphical ARMA models, Automatica, Volume 141, 2022, 110319, ISSN 0005-1098, <https://doi.org/10.1016/j.automatica.2022.110319> (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0005109822001674>)
9. Zahra Babaei, Haidar Samet, Masoud Jalil. An innovative approach considering active power and harmonics for modeling the electric arc furnace along with analyzing time-varying coefficients based on ARMA models, International Journal of Electrical Power & Energy Systems, Volume 153, 2023, 109377, ISSN 0142-0615, <https://doi.org/10.1016/j.ijepes.2023.109377> (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0142061523004349>)
10. Charles S. Reichardt, Evaluation and Program Planning, Volume 28, Issue 2, 2005, Pages 245-246, ISSN 0149-7189, <https://doi.org/10.1016/j.evalprogplan.2005.01.006>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0149718905000145>)
11. Nevin Cavusoglu, LISREL growth model on direct and indirect effects using cross-country data, Economic Modelling, Volume 29, Issue 6, 2012, Pages 2362-2370, ISSN 0264-9993,
12. A. M. Jumaev, D.Turapova. Ipoteka kreditlarini arima modeli asosida prognozlash. Central Asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489. VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2022. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
13. Habibullayev I., Urulov R. Ekonometrika asoslarini fanidan O'quv – uslubiy majmua. Toshkent moliya instituti Toshkent-2019. 31-b.
14. Peter Lachenbruch. SIXPLOT: Stata module to display six diagnostic and descriptive graphs for a single variable. Statistical Software Components S457124, Boston College Department of Economics, revised 16 Feb 2010.
15. D.A. Dickey and W.A. Fuller (1981). Likelihood Ratio Statistics for Autoregressive Time Series with a Unit Root. Econometrics, 49, pp. 1057-72
16. Soren Johansen, A Small Sample Correction of the Dickey–Fuller Test, Contributions to Economic Analysis, Elsevier, Volume 269, 2004, Pages 49-68, ISSN 0573-8555, ISBN80444516336,(<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0573855504690031>).